

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TO‘LAKOV ULUG‘BEK TOSHMAMATOVICH**

**KO‘CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISH METODOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора (DSc)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)  
on economical sciences**

**To‘lakov Ulug‘bek Toshmamatovich**

Ко‘chmas mulkni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish.....3

**Тулаков Улугбек Ташмаматович**

Совершенствование методологии налогообложения недвижимости.....33

**Tulakov Ulugbek Toshmamatovich**

Improvement of the methodology of real estate taxation.....65

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....71

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TO‘LAKOV ULUG‘BEK TOSHMAMATOVICH**

**KO‘CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISH METODOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/Iqt646 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kuziyeva Nargiza Ramzanovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Axrоров Zarif Oripovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Bozorov Akmal Amonovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**


**Toshkent kimyo xalqaro universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "2" 10 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

Dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1263 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" 03 kuni tarqatildi.

(2025-yil "10" 03 dagi № 79-raqamli reestr bayonnomasi)



**S.U.Mexmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V.Gafurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**N.B.Abdusalomova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida ko'chmas mulkni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash, byudjet tushumlarini barqaror ta'minlash va teng raqobat muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqqa tortish mexanizmlarining aniqligi va adolatliligi bozorda mulk qiymatining real aks ettirilishiga, shuningdek, soliq tashuvchilarning majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishiga turtki beradi. "Bugungi kunda ko'chmas mulk solig'i dunyo bo'ylab umumiy soliq daromadlarining o'rtacha 5-6% ini tashkil etadi. AQSH va Buyuk Britaniyada bu ko'rsatkich 10-12% gacha yetib, YAIMning 2-3%ini qamrab oladi. Kanadada ko'chmas mulk solig'ining ulushi yuqoriroq bo'lib, 15-20% ni tashkil etadi. Fransiyada bu soliq 8-10% ni, Shveysariyada esa 7-8% ni tashkil qiladi. Ayrim mamlakatlarda ko'chmas mulk solig'i mahalliy byudjetlarning o'rtacha 20-40% hissasini tashkil qilishi mumkin. Masalan, Fransiyada bu ko'rsatkich 40-50%, Kanadada 70-80% ni, Shveysariyada esa 10-20% ni tashkil etadi"<sup>1</sup>. Bundan tashqari, zamonaviy metodologiyalar ko'chmas mulk bozorida shaffoflikni oshirish, soliq kamchiliklarini kamaytirish va davlatning makroiqtisodiy barqarorlikka erishishida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shu bois, ushbu metodologiyalarning xalqaro standartlar va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirilishi global iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi globallashtirish va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida jahon mamlakatlarida ko'chmas mulkni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish va soliq ma'murchiligini soddalashtirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ko'chmas mulkni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish dolzarb bo'lib, bozor qiymatiga asoslangan baholashni joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va soliq ma'murchiligini soddalashtirishga urg'u berilmoqda. Ushbu yondashuvlar mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish, soliq tizimining shaffofligi va adolatliligini ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishga rag'bat berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistondagi ijtimoiy o'zgarishlar – mulkchilik institutining shakllanishi, ko'chmas mulk bozorining shakllanishi ko'chmas mulkni soliqqa tortish tizimini isloh qilish uchun shart-sharoit yaratdi va ehtiyojni shakllantirdi. O'zbekiston Respublikasining soliqqa tortish tizimini isloh qilish, xususan, mol-mulk va yer solig'iga yondashuvlarni o'zgartirishni, mol-mulk inventarizatsiya qiymatidan va yerning me'yoriy qiymatidan ko'chmas mulk bozoridagi vaziyatga qarab o'zgarib turadigan "bozor qiymati" indikatoriga o'tishni nazarda tutgan<sup>2</sup>. O'zbekistonda bunday ko'rsatkichni aniqlash usuli ko'chmas mulkni kadastr baholash hisoblanadi. Bozor qiymatiga asoslangan baholashni joriy etish, raqamli texnologiyalar orqali jarayonlarni avtomatlashtirish, sun'iy intellekt hamda

<sup>1</sup> OECD Revenue Statistics 2024: Health Taxes in OECD Countries (1965–2023). oecd.org - sayti ma'lumotlari.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish soliq tizimining shaffofligi va samaradorligini ta'minlaydi. Soliq yukini optimallashtirish va innovatsion yondashuvlar orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan birga, ko'chmas mulk solig'i bilan bog'liq muammolarning yechimini topish uchun ilmiy tadqiqotlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar byudjet-soliq siyosatini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Hududlarning soliq salohiyatini oshirish va soliqqa tortishda ijtimoiy adolatni qaror toptirish uchun ko'chmas mulkning kadastr qiymati asosida soliqqa tortishga o'tish sharoitida ko'chmas mulkni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etib, dissertatsiya tadqiqotining mavzusi hamda yo'nalishini belgilashda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi PF-43-son "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 7-sentyabrdagi PF-6061-son "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 3-dekabrda PF-6121-son "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida", 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 7-sentyabrdagi PQ-4819-son "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi huzuridagi kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 10-iyuldagi PQ-4389-son "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyuldagi VM-389-son "Davlat kadastrlarini yuritish sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>3</sup>. Ko'chmas mulk solig'ini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy izlanishlar xalqaro ilmiy markazlar, moliya institutlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan izchil davom ettirilmoqda. Xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF, AQSH), Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD, Fransiya), Jahon banki (World Bank, AQSH), Yevropa Komissiyasi (YEK, Belgiya), International

---

<sup>3</sup> IMF. How to Design and Implement Property Tax Reforms. 2024.; OECD. Tax Policy Reforms 2024: OECD and Selected Partner Economies; European Commission. Economic Brief 079 – Growth-Friendly Taxation in a High-Inflation Environment. 2024.; World Bank Blog. How Stronger Land Systems Can Spur Economic Growth and Jobs. 2025.; World Bank TDLC. Technical Deep Dive: Property Tax and Land-Based Financing. 2023.; IAAO. Guidance on Developing Mass Appraisal and Related Tax Policy. 2023.

Association of Assessing Officers (IAAO, AQSH), shuningdek Oxford University (Buyuk Britaniya), Sorbonne University (Fransiya), Columbia University (AQSH), University of Bonn (Germaniya), Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Termiz davlat universiteti (O‘zbekiston) kabi nufuzli universitetlar ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib bormoqda.

Jahonda ko‘chmas mulk solig‘i bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar asosida qator muhim xulosalar va tavsiyalar ilgari surilgan, jumladan: IMFning 2024-yilgi “How to Design and Implement Property Tax Reforms” qo‘llanmasiga ko‘ra, mulk solig‘i bazasini kengaytirish hamda kadastr qiymatlarini bozorga yaqinlashtirish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda bu soliq tushumlarini hozirgi darajadan kamida ikki barobar oshirish mumkinligi asoslangan. Shu bilan birga, soliq stavkasini mo‘tadil (0,3 – 1,0%) qoldirish tavsiya etilgan<sup>4</sup>; OECDning 2024-yilgi “Tax Policy Reforms” hisobotiga ko‘ra, 2021-yilda ko‘chmas mulk soliqlarining umumiy soliq tushumlaridagi ulushi yuqori daromadli mamlakatlarda o‘rtacha 5,9%, past daromadlilarda esa 1,2% ni tashkil etgan. 2023-yilda Chexiya ko‘chmas mulk solig‘i stavkasi ikki baravar oshirilgan, Seyshel orollari esa stavkani 0,25% dan 0,5% ga ko‘targan<sup>5</sup>; YEKning 2024-yil mart oyidagi “Economic Brief”da yuqori inflyatsiya sharoitida kadastr qiymatlarini tez-tez yangilash va “aktiv-boy, naqd-kambag‘al” uy-egallari uchun kechiktirilgan to‘lov yoki soliq krediti mexanizmlarini joriy etish zarurligi ta’kidlangan<sup>6</sup>; Jahon bankining 2025-yil aprel oyidagi tahlili Kolumbiyada kadastrni raqamlashtirish 2021–2023-yillarda mahalliy mulk solig‘i tushumlarini o‘rtacha 35%, ba’zi shaharlarda 150% gacha oshirgani va markaziy byudjetga bog‘liqlikni 24% ga kamaytirganini ko‘rsatdi<sup>7</sup>; World Bank Tokyo Development Learning Centering 2023-yil sentyabrdagi “Technical Deep Dive: Property Tax and Land-Based Financing” seminarida Yaponiya tajribasi misolida kadastrni geoma’lumotlar bilan integratsiya qilish soliq yig‘im xarajatlarini 12–15% ga qisqartirishi mumkinligi hisoblab chiqildi<sup>8</sup>; IAAOning 2023-yil noyabr oyidagi “Guidance on Developing Mass Appraisal and Related Tax Policy” hujjati ommaviy baholash modellari (AVM)ni joriy etish hisobidan baholash xarajatlarini 15–30% ga kamaytirish imkoni borligini qayd etgan<sup>9</sup>.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi ilmiy markazlari tadqiqotlari quyidagi asosiy tendensiyalarni tasdiqlamoqda: kadastr qiymatlarini bozorga mos holda doimiy yangilash – soliq adolatini va tushum prognozi aniqligini oshiradi; raqamlashtirilgan baxolash-billing-ijro zanjiri ko‘chmas mulk solig‘i yig‘imini arzonlashtiradi va shaffoflikni ta’minlaydi; ijtimoiy adolat mexanizmlari (soliq krediti, kechiktirilgan to‘lov) soliq yukini to‘lov qobiliyatidan kelib chiqib tarqatish imkonini beradi; yer qiymatining o‘shishidan kelib chiqqan qo‘shimcha

---

<sup>4</sup> IMF. How to Design and Implement Property Tax Reforms. 2024.

<sup>5</sup> OECD. Tax Policy Reforms 2024: OECD and Selected Partner Economies

<sup>6</sup> European Commission. Economic Brief 079 – Growth-Friendly Taxation in a High-Inflation Environment. 2024.

<sup>7</sup> World Bank Blog. How Stronger Land Systems Can Spur Economic Growth and Jobs. 2025.

<sup>8</sup> World Bank TDLC. Technical Deep Dive: Property Tax and Land-Based Financing. 2023.

<sup>9</sup> IAAO. Guidance on Developing Mass Appraisal and Related Tax Policy. noyabr 2023.

qiymatni infratuzilmaga yoʻnaltirish (land value capture) mahalliy byudjetlarni diversifikatsiya qiladi.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Koʻchmas mulkka soliq solishni takomillashtirish masalalari, eng avvalo, uning adolatligi va qonuniyligi nuqtayi nazaridan doimo jamoatchilik bahslari va ilmiy munozaralar mavzusi boʻlib kelgan.

Koʻchmas mulkka soliq solishning nazariy va amaliy masalalari mamlakatimiz hamda xorijlik olim va amaliyotchilarning koʻplab asarlarida keng muhokama qilingan. Koʻchmas mulkni soliqqa tortish maqsadida baholash masalalari, uning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari, hamda investitsiya jarayonlariga taʼsiri xorijlik olimlar B.Aliyev, V.Bezrukov, M.Berezina, R.Vesseli, S.Gribovskiy, R.Gludemans, T.Loginova, W.McCluskey, R.Bahl, R.Franzsen, I.Mayburov, M.Mishustin, D.Malme, A.Myuller, R.Almy, I.Ozerov, U.Petti, M.Pinskaya, A.Pilayeva, D.Rikardo, A.Smit, N.Turgeneva, D.Fridman, D.Ekkert, S.Shatalova, D.Yangmen, I.Yanjullarning fundamental tadqiqotlarida koʻrib chiqilgan<sup>10</sup>.

Oʻzbekistonlik iqtisodchi olimlar A.Vaxobov, A.Joʻrayev, A.Altiyev, I.Niyazmetov, M.Toʻychiyev, A.Mirxoshimov, U.Pardayev, Gʻ.Safarov, S.Boymurodov, Sh.Musalimov, A.Nazarov, F.Fayziyev, U.Ataqulov, N.Ishonkulov va boshqalarning ilmiy ishlarida koʻchmas mulkni soliqqa tortishni takomillashtirishning nazariy va ilmiy–uslubiy jihatlari qisman oʻz aksini topgan<sup>11</sup>.

---

<sup>10</sup> Алиев Б.Х., Мусаева Х.М. Развитие налогового федерализма в условиях российских реформ. Налоги и финансовое право. 2012. № 3.; Безруков, В.Б. Налогообложение и кадастровая оценка недвижимости: монография. Н. Новгород: ННГАСУ, – 2011. – 153 с.; Березин М.Ю. Новый налог на недвижимость в российской налоговой системе. Финансы. 2011. № 4.; Вессели, Р. Государственная кадастровая (массовая) оценка для целей налогообложения – российский и зарубежный опыт. Экономические стратегии. – 2008. – № 2. – С. 124–131.; Грибовский, С. В. Математические методы оценки стоимости недвижимого имущества: учеб. пособие. – М.: Финансы и статистика, 2008. – 366 с.; Gludemans, R. Mass appraisal of Real Property. International Association of Assessing Officers. – Chicago, 1999.; Логинова Т.А. Концептуальные подходы к налогообложению недвижимого имущества и их реализация в налоговых системах стран ОЭСР и Российской Федерации, Налоги и налогообложение, 2017. №. 9, – сс. 1–14.; McCluskey, W.J., R. Bahl, and R.C.D. Franzsen (eds.). 2022. Property Tax in Asia–Policy and Practice.; Майбуров, И.А. Налоги и налогообложение: учебник. – М.: ЮНИТИ–ДАНА, 2010. – 560 с.; Мишустин, М. В. Администрирование имущественного налогообложения в России. Стратегия развития. – М.: ЮНИТИ, 2011. – 367 с.; Озеров Е.С. Экономический анализ и оценка недвижимости. – СПб.: МКС, 2007. 536 с.; Петти, У. Трактат о налогах и сборах. Классика экономической мысли. – М., 2000.; Пинская М.Р. Налоговая база территории: конкуренция и меры по расширению. Налоговая политика и практика. – 2011. –№5. – С. 26–30; Пылаева, А.В. Основы кадастровой оценки недвижимости: монография. Изд–во ННГАСУ. – Н. Новгород, 2014. – 141 с.; Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. The Electronic Edition (2000) The Library of Economics and Liberty; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Государственное издательство политической литературы, 1955. С. 193; Тургенев, Н.И. Опыт Теории налогов. У истоков финансового права: сборник. – М.: 1998. – С. 127.; Шаталова, С.С. Совершенствование льгот по налогу на имущество физических лиц. Российское предпринимательство. –Т.: –2015. –№24. –4467–4486 с.; Янжул, И.И. Основные начала финансовой науки: Учение о государственных доходах. – М.: Статут, 2002. – 553 с.; Фридман Д. Анализ и оценка приносящей доход недвижимости. – М.: Дело. 2005. С. 86.; Эккерт, Дж. Организация оценки и налогообложения недвижимости. – М.: Рос. о–во оценщиков, 1997. – Т. 1–2.; Almy, R. Real property assessment systems. Lincoln institute of Land Policy. – Cambridge: Lincoln institute of Land Policy, 2004.; Malme Jane H. and. Youngman Joan M. eds., The Development of the Property Tax in Economies in Transition, WBI Learning Resources Series (Washington: World Bank, 2001); Мюллер, А. Имущественные налоги и оценка в Дании. Налоговая оценка недвижимости и развитие институтов имущественного налогообложения: докл. междунар. конф. – Москва, 2005.

<sup>11</sup> Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. Hammual.: A. Vahobov, A. Joʻrayev. – Т.: “Sharq” nashriyoti – 2009.; Altiev, A., Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy 8

Ko'chmas mulkni soliqqa tortish masalalari xalqaro konferensiyalar va davriy matbuotda faol muhokama qilinayotganiga qaramay, ushbu muammoning ko'plab jihatlari hali yetarlicha o'rganilmagan va ishlab chiqilmagan. Ko'chmas mulkni soliqqa tortishdagi yangiliklar batafsil ishlab chiqilmasa, aholining himoyalangan qatlamlarining ijtimoiy ahvolini jiddiy yomonlashtirib yuborishi mumkin. Shu sababli, ko'chmas mulkni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kadastr qiymati asosida ko'chmas mulkni soliqqa tortishga o'tish sharoitida byudjet tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni minimallashtirish uchun ko'chmas mulkni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

O'zbekistonda va xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan ko'chmas mulk soliqlarining umumiy tavsifini berish;

xorijiy mamlakatlarda ko'chmas mulk solig'i tizimining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va ilg'or tajribalarni tahlil qilish;

O'zbekistonda ko'chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholash institutining shakllanish bosqichlarini aniqlash hamda uning barqaror rivojlantirish dasturini taklif etish;

ko'chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholash uchun ko'chmas mulk obyektlarini turlash tamoyillarini belgilash;

ko'chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholash uchun tasniflashning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubini taklif etish;

---

darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. 2018. – 277 b.; Niyazmetov I.M (2018) Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash. Iqt. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent. – 72 b.; To'ychiev N.J., Mirxoshimov A.M., (2000) Ko'chmas mulkni baholash asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Adolat. 280 b.; Pardayev U. (2018) Davlat byudjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)... diss.avtoref. – Toshkent. 25–26 b.; Safarov G.A. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishini soliqlar vositasida rag'batlantirish. Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. T. Akademiya. 2006 y. 26 b.; Boymurodov S. (2021) Mahalliy byudjetlar daromadlarini barqarorlashtirishda yer va mol-mulk soliqlaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd). diss. avtoref. – Toshkent. 32 b.; Musalimov Sh. (2020) Mol-mulk solig'ini hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd). diss. avtoref. – Toshkent. 32–35 b.; Nazarov A. (2021) Ko'chmas mulk obyektlarining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishni takomillashtirish Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd). diss. avtoref. – Toshkent. 25–32 b.; Fayziyev F. (2021) Mahalliy byudjet daromadlari bazasini kengaytirishda birlashtirilgan soliqlar rolini oshirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd). diss. avtoref. – Toshkent. 22–38 b.; Ataqulov U. (2024) Ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd). diss. avtoref. – Toshkent. 21–27 b.; Ishonkulov N. (2025) Ko'chmas mulkni baholash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). diss. avtoref. – Toshkent. 21–41 b.;

ko'chmas mulk obyektlarining davlat kadastr hisobi holati va ko'chmas mulkni baholash usullarini qo'llash imkoniyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash;

baholash yondashuvlari va usullarini qo'llash uchun davlat kadastr hisobi sifatini oshirishga oid tavsiyalar berish;

ko'chmas mulkni kadastr baholash metodologiyasini ishlab chiqish, uning tarkibida ko'chmas mulkni kadastr baholashning davriy, tashkiliy va mantiqiy tuzilmalarini aniqlash;

kadastr baholash yondashuvlari va usullarini aniqlash, ularni qo'llash amaliyotini tadqiq etish, hamda soliq solish uchun ommaviy baholashning xalqaro amaliyotida qo'llaniladigan qiymatni baholash usullari majmui bilan to'ldirish;

jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektlariga solinadigan soliq bo'yicha ijtimoiy soliq chegirmalari ssenariylarini ishlab chiqish;

ko'chmas mulk solig'i modelini ishlab chiqish, modelning qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrlardagi parametrlarini aniqlash;

ko'chmas mulkni soliqqa tortish tizimida bozor qiymati asosida ommaviy baholashning rolini oshirish yuzasidan ilmiy-amaliy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ko'chmas mulkni soliqqa tortish faoliyatini olingan.

**Tadqiqotning predmeti** ko'chmas mulkni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirishda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya tadqiqotini amalga oshirishda empirik, institutsional, monografik, qiyosiy va omilli tahlil, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, tizimli yondashuv, ekspert baholash, klasterli, omilli va regression tahlilning matematik modellashtirish, qiyosiy taqqoslash, ekspert baholash va grafik usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishda davlat kadastr organlari, soliq ma'muriyatlari va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida institutsional o'zaro hamkorlik mexanizmlarini nazarda tutuvchi, fazoviy axborot texnologiyalariga asoslangan soliq va baholash integratsiyasini ta'minlovchi institutsionallashuv modeli orqali uchta darajada (markaziy, mintaqaviy va mahalliy) soliqqa tortish jarayonlarini samarali muvofiqlashtirish imkoni asoslangan;

ko'chmas mulkni soliqqa tortishning mualliflik modelida obyektning huquqiy maqomi, funksional foydalanish maqsadi, joylashuv jihati va bozordagi nisbiy likvidligini inobatga olgan holda soliq miqdorini hisoblashga imkon beradigan parametrik yondashuv orqali ko'chmas mulk soliq tushumlarini 18-22% ga oshirish imkoni asoslangan;

hududlar bo'yicha toifalangan holda ko'chmas mulk obyektlarining bozor qiymatini aniqlashning "hududiy indikatorlarni tuzish – har bir sektorda aniq obyektlar bo'yicha baholash o'tkazish – kadastr qiymatlarini tartibga solish"dan iborat uch bosqichli davriy ommaviy baholash mexanizmini joriy etish orqali har bir 3 yillik baholash davrida soliq bazasini real bozor holatiga yaqinlashtirishni ta'minlash taklifi asoslangan;

ko'chmas mulkni kadastr baholash jarayonini davlat tomonidan boshqarishni joriy etish, ko'chmas mulkni kadastr baholash bo'yicha Milliy markazni tashkil etish hamda oliy ta'lim tizimida yangi "Soliq bahosi" mutaxassisligini joriy etish orqali soliq solish va ko'chmas mulkni kadastr baholash institutini barqaror rivojlantirish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda jismoniy shaxslar uchun ko'chmas mulk solig'ida ijtimoiy imtiyozlarning turli ssenariylari va ko'chmas mulkni soliqqa tortishda ommaviy baholashni takomillashtirish maqsadida ekonometrik modellar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ko'chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholash uchun yagona tasniflagich va uning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan;

ko'chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholashda tasniflashning funksional va hududiy tamoyillariga ko'ra ko'chmas mulk obyektlarini turlash asoslangan;

ko'chmas mulkni soliqqa tortishda kadastr baholashni korrelyatsion-regression yoki klasterli tahlillar asosida baholash, turlash, matematik va statistik modellashtirish, shuningdek, kadastr qiymatining solishtirma ko'rsatkichlari asosida modellashtirish usullarini MBSga qo'shish asoslangan;

ko'chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholashda tasniflashning funksional va hududiy tamoyillariga ko'ra ko'chmas mulk obyektlarini turlash taklif etilgan;

ko'chmas mulk solig'i modeli ishlab chiqilib unda o'tish davri tuzilmasi aniqlandi va soliq tizimini umumiy takomillashtirish doirasida ko'chmas mulk solig'i modeliga muvozanatli o'tish bo'yicha takliflar shakllantirildi;

ko'chmas mulkka soliq solish va kadastr baholash institutini rivojlantirish uchun jarayonni davlat tomonidan boshqarishni joriy etish, ko'chmas mulkni kadastr baholash bo'yicha Milliy markazni tashkil etish taklif etilgan;

ko'chmas mulkni soliqqa tortish tizimini bosqichma-bosqich, evolyutsion o'zgartirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarni rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Kadastr agentligi ma'lumotlari, soliq qonunchiligini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, mamlakat va xorijiy olimlarning ekspert baholari va ishlanmalaridan foydalanilganligi hamda xulosa va takliflarning soliq idoralari tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ularning ko'chmas mulkni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlaridagi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Soliq idoralari tomonidan ko'chmas mulkni soliqqa tortish

metodologiyasini takomillashtirishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek ishda bayon etilgan nazariy va metodologik qoidalardan o'quv-pedagogik faoliyatda, oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash jarayonida, "Soliqlar va soliqqa tortish", "Ko'chmas mulkni kadastr baholash" fanlari bo'yicha kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ko'chmas mulkni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishda davlat kadastr organlari, soliq ma'muriyatlari va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida institutsional o'zaro hamkorlik mexanizmlarini nazarda tutuvchi, fazoviy axborot texnologiyalariga asoslangan soliq va baholash integratsiyasini ta'minlovchi institutsionallashuv modeli orqali uchta darajada (markaziy, mintaqaviy va mahalliy) soliqqa tortish jarayonlarini samarali muvofiqlashtirish taklifidan "O'zbekiston Respublikasi 2025-2027-yilga mo'ljallangan Fiskal strategiyasi"ni ishlab chiqishda hamda byudjet-soliq siyosatiga oid ishchi hujjatlari va qarorlarini shakllantirishda hamda uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 18-apreldagi 21/1-46110-sonli dalolatnomasi). Ushbu modelni amaliyotga joriy qilinishi natijasida soliq tizimini umumiy takomillashtirish doirasida ko'chmas mulk solig'ining yangi modeliga muvozanatli o'tish bosqichlari, qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrlarda ko'chmas mulk solig'ining yangi modeli parametrlari ishlab chiqilgan. Ko'chmas mulkni soliqqa tortish modeli "O'zbekiston Respublikasi 2025-2027-yilga mo'ljallangan Fiskal strategiyasi" uchun muhim asos bo'lib, u davlat va mahalliy darajada moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga, soliqqa tortish jarayonini takomillashtirishga hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shib, O'zbekistonning soliq tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish imkonini bergan;

hududlar bo'yicha toifalangan holda ko'chmas mulk obyektlarining bozor qiymatini aniqlashning "hududiy indikatorlarni tuzish – har bir sektorda aniq obyektlar bo'yicha baholash o'tkazish – kadastr qiymatlari tartibga solish"dan iborat uch bosqichli davriy ommaviy baholash mexanizmini joriy etish orqali har bir 3 yillik baholash davrida soliq bazasini real bozor holatiga yaqinlashtirishni ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-43-son Farmonida inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 18-apreldagi 21/1-46110-sonli dalolatnomasi). Taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2025-2027-yillarda hududlarda ommaviy baholash ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilib, ommaviy baholash tizimi joriy etilishi natijasida mulkning real bozor narxiga yaqin bo'lgan qiymati aniqlanib, soliq bazasi 20-30% ga kengayib, taklif etilgan mexanizm joriy qilinganidan keyin kelgusi 3 yil ichida ko'chmas mulk sohasidagi investitsiya hajmini kamida 30% oshirish imkonini yaratgan;

ko'chmas mulkni soliqqa tortishning mualliflik modelida obyektning huquqiy maqomi, funksional foydalanish maqsadi, joylashuv jihati va bozordagi nisbiy likvidligini inobatga olgan holda soliq miqdorini hisoblashga imkon beradigan parametrik yondashuv orqali ko'chmas mulk soliq tushumlarini 18-22% ga oshirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-43-son Farmonini shakllantirishda hamda uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 18-apreldagi 21/1-46110-sonli dalolatnomasi). Ommaviy baholash metodologiyasining amaliyotga joriy etilishi ko'chmas mulk bozoriga oid ishonchli, to'liq va muntazam yangilanib boradigan yagona raqamli platforma hamda metodologiyaga asoslangan axborot bazasining shakllanishiga turtki berib, bu esa adolatlilik tamoyilini ta'minlaydi, shaffoflikni oshiradi va korrupsiya xavfini kamaytiradi. Qolaversa, ushbu taklif asosida ko'chmas mulkni ommaviy baholash sohasidagi organlar va ularning vazifalari belgilangan;

ko'chmas mulkni kadastr baholash jarayonini davlat tomonidan boshqarishni joriy etish, ko'chmas mulkni kadastr baholash bo'yicha Milliy markazni tashkil etish hamda oliy ta'lim tizimida yangi "Soliq bahosi" mutaxassisligini joriy etish orqali soliq solish va ko'chmas mulkni kadastr baholash institutini barqaror rivojlantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-43-son Farmonini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 18-apreldagi 21/1-46110-sonli dalolatnomasi). Ushbu model amaliyotga joriy etilganidan keyin, ko'chmas mulkni soliqqa tortish va baholash sohasi bo'yicha "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash Milliy markazi" tashkil etildi. Shu bilan birga, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kadastr agentligi hamkorligida mamlakatimizda ko'chmas mulkni soliqqa tortish va baholash instituti yo'lga qo'yildi. Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning va kadastr baholash institutsionallasuvi modeli nafaqat soliq tizimini modernizatsiya qilish, balki hududlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, moliyaviy barqarorlikni kuchaytirish va soliq siyosatida xalqaro standartlarga mos mexanizmlarni joriy etish yo'lida muhim qadam hisoblandi. Shuningdek, mazkur taklif O'zbekistonning 2027-yilgacha mo'ljallangan fiskal strategiyasi doirasida barqaror rivojlanishga erishish uchun muhim vosita bo'lgan;

O'zbekistonda jismoniy shaxslar uchun ko'chmas mulk solig'ida ijtimoiy imtiyozlarning turli ssenariylari va ko'chmas mulkni soliqqa tortishda ommaviy baholashni takomillashtirish maqsadida qurilgan ekonometrik modellari "O'zbekiston Respublikasining 2025-2027-yilga mo'ljallangan Fiskal strategiyasi"ni ishlab chiqishda hamda byudjet-soliq siyosatiga oid ishchi hujjatlari va qarorlarini shakllantirishda, uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 18-apreldagi 21/1-46110-sonli dalolatnomasi). Natijada ekonometrik modellarga asoslangan prognoz baholash ko'chmas mulkning real bozor qiymatini aniqroq baholash, hisoblash uchun adolatli va shaffof bazani yaratish, turli hududlardagi mulk qiymatini

taqqoslash imkonini berib, O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy strategiyalarini rivojlantirishda, soliqqa tortish jarayonini yanada optimallashtirishda va fiskal barqarorlikni ta‘minlashda hamda byudjet-soliq siyosatini samarali yuritishda muhim asos yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 4 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan va ma‘qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ish, 1 ta monografiya, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta maqola, jumladan, 17 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tarkibi 218 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obekti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Ko‘chmas mulkni soliqqa tortishning nazariy-konseptual asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ko‘chmas mulk solig‘ining iqtisodiy mohiyati, moliya-byudjet siyosatidagi o‘rni va ahamiyati, xorijiy davlatlar tajribasi asosida soliqqa tortishning ustuvorligi, shuningdek institutlar, kadastr axborot tizimlari va raqamli platformalarni integratsiya qilish orqali milliy soliq-kadastr tizimini modernizatsiya qilish zarurati ilmiy-uslubiy jihatdan izohlab berilgan.

Davlatning fiskal manfaatlari va jamiyat a‘zolarining mulkiy manfaatlari o‘rtasidagi munosabatlar soliqqa tortish tamoyillari soliqning mohiyatiga yangicha falsafiy qarashni belgilab berdi va soliq to‘lovchilarning ham, davlatning ham manfaatlarini hisobga oladigan tizimni ifodalay boshladi. Manfaatlar qutbliligi bozor iqtisodiyotining ikkita modelini belgilab berdi – liberal model bozor erkinligi va samaradorlikni birinchi o‘ringa qo‘yadi, ijtimoiy-yo‘naltirilgan model esa bozor mexanizmlarini saqlagan holda ijtimoiy adolat va keng qamrovli farovonlikni maqsad qiladi<sup>12</sup>.

1–rasmda aynan ko‘chmas mulkni soliqqa tortish tizimi davlat boshqaruvining ajralmas qismi sifatida aks ettirilgan.


---

<sup>12</sup> Безруков, В.Б. Налогообложение и кадастровая оценка недвижимости: монография. – Новгород: ННГАСУ, 2011. – 153 с.



**1–rasm. Ko'chmas mulk solig'i tizimining davlat va bozor infratuzilmalari bilan integratsiyalashgan modeli<sup>13</sup>.**

Davlat boshqaruv tizimi soliqlar va yig'imlar orqali faoliyat yuritadi, bu esa o'z navbatida turli xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlaydi. Eng muhimi, bu soliq tizimi nafaqat fiskal maqsadlarga xizmat qiladi, balki ijtimoiy va iqtisodiy tizimga chuqur integratsiyalashgan bo'lib, jamiyatning umumiy farovonligiga ham hissa qo'shadi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu model O'zbekistonda ko'chmas mulkni soliqqa tortishning murakkab, ammo yaxlit tizimini tasvirlaydi. Bu tizim davlat boshqaruvining markaziy elementi bo'lib, bozor ma'lumotlariga tayanadi va eng asosiysi, mamlakatning liberal va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti modellari o'rtasidagi nozik muvozanatni ta'minlashga qaratilgan yangi yondashuvning amaldagi ifodasidir.



**2–rasm. 2013-2023 yillarda IHTT mamlakatlari byudjetlarida ko'chmas mulk soliqlarning ulushi, %da<sup>14</sup>**

<sup>13</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan

<sup>14</sup> OECD. (2024). Revenue Statistics 2024: Health Taxes in OECD Countries (1965–2023). OECD Publishing. ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) 2013–2023-yillardagi ma’lumotlariga ko‘ra, tashkilotga a’zo mamlakatlarda ko‘chmas mulk soliqlarining yillik jami soliq tushumlaridagi ulushi 1% dan 12% gachani tashkil etdi: Avstriyada – 1% dan 2% gacha, Belgiyada – 7,5% dan 8,5% gacha, Kanadada – 10% dan 12% gacha tebrangan (2–rasm).

Mamlakatimizda mol-mulk soliqlarining mahalliy byudjetlar daromadlaridagi ulushini ko‘rib chiqamiz (1–jadval). O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjetlari soliq daromadlarida mol-mulk va yer soliqlarining fiskal roli hududlarga qarab sezilarli darajada farq qiladi. O‘zbekiston Respublikasida 2020-2023-yillardagi mahalliy byudjetlar monitoringi natijalariga ko‘ra, o‘z daromadlarida yer va mol-mulk solig‘ining ulushi 16% dan 22% gacha ortib borgan tashkil etadi<sup>15</sup>.

**1–jadval**

**2020-2023 yillarda mol-mulk va yer soliqlaridan tushadigan daromadlarning mahalliy byudjetlardagi ulushi %da<sup>16</sup>**

Hududlar	2020	2021	2022	2023
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	19	19	21	22
Andijon viloyati	12	12	10	14
Buxoro viloyati	14	18	20	24
Jizzax viloyati	13	14	15	18
Qashqadaryo viloyati	21	18	21	22
Navoiy viloyati	16	24	24	25
Namangan viloyati	13	14	13	16
Samarqand viloyati	15	17	17	20
Surxondaryo viloyati	16	17	16	19
Sirdaryo viloyati	15	15	14	16
Toshkent viloyati	22	23	26	24
Farg‘ona viloyati	12	13	16	17
Xorazm viloyati	15	16	15	18
Toshkent shahri	23	28	30	31
<b>Jami:</b>	<b>16</b>	<b>18</b>	<b>19</b>	<b>22</b>

Ko‘chmas mulkni soliqqa tortish tizimlari sharhi 2–jadval keltirilgan.

**2–jadval**

**Ayrim Yevropa davlatlarida ko‘chmas mulkni soliqqa tortish sharhi<sup>17</sup>**

Mamlakat	Ko‘chmas mulk solig‘i turi	Soliq solish asosi	Foydalaniladigan baholash usullari
Belgiya	Ko‘chmas mulk solig‘i	Ijaradan olingan daromad	Indekslanadigan me’yoriy qiymat. Mahalliy hokimiyatlar tomonidan belgilanadi
Daniya	Yer va binolar solig‘i	Bozor qiymati	Me’yoriy qiymat. Mahalliy hokimiyat tomonidan belgilanadi
Germaniya	Ko‘chmas mulk solig‘i	Normativ qiymati	Me’yoriy qiymat. Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi

<sup>15</sup> Fuqarolar uchun byudjet 2023 yil

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

<sup>17</sup> Internet ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatlarda ko'chmas mulkka nisbatan soliq mavjud bo'lib ularning turi, soliq solish asosi va baholash usullari bo'yicha sezilarli farqlar mavjud. Ayrim Yevropa davlatlarida ko'chmas mulkni soliqqa tortish tizimlari turlicha tashkil etilganligini, xususan, soliq bazasini belgilash va baholash mexanizmlarida yagona standart mavjud emasligini ko'rsatadi.

Olib borilgan tadqiqot natijasida ko'chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholash institutining shakllanishini o'rganish uchun institutsional yondashuv nuqtayi nazaridan metodologiya takomillashtirildi va bosqichlari modeli taklif etildi (3–jadval).

### 3–jadval

#### Ko'chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholash institutsionallashtirish modeli bosqichlari tavsifi<sup>18</sup>


Bosqich	Tavsif	Natija
1. Yaratish	Institutning boshqaruv organlari tashkil etish; Tegishli me'yoriy asos ishlab chiqish; Sudlarni nizolarni hal qilish usuli deb e'lon qilish.	Kadastr baholash institutining shakllanishi uchun huquqiy asos yaratiladi
2. Tashkil etish	Qonunchilik normalarini yo'naltiruvchi va ko'rsatmali tartibga solish; Soliqqa tortish va kadastr baholash jarayonlarini muvofiqlashtirish; Funksional jarayonlar va texnologiyalarni joriy etish.	Soliq ma'muriyatchiligi va kadastr baholash tizimini tashkillashtirish
3. Shakllantirish	Qonunchilikni modifikatsiyalash va yagona me'yoriy bazani ishlab chiqish; Soliqqa tortishda kadastr baholashni rasmiylashtirish; Faoliyat standartlari va sifat nazorati tizimini joriy etish.	Soliq va kadastr baholash institutining to'liq shakllanishi
4. Rivojlantirish	Boshqaruv tizimini takomillashtirish; Soliq va kadastr baholash ma'lumotlari bazasini yaratish; Soliqqa tortish jarayonida raqamlashtirish va avtomatizatsiyani joriy etish.	Soliq va kadastr baholash tizimining samaradorligini oshirish
5. Takomillashtirish	Soliq bazasini aniqlashda kadastr baholash metodlarini takomillashtirish; Soliq yuki va baholash jarayonlarini shaffoflashtirish; Nizolarni sudgacha hal qilish amaliyotini rivojlantirish.	Soliq to'lovchilar va davlat organlari o'rtasida ishonchli hamkorlik

Mamlakatimizda ko'chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholash instituti tashkil etilish, shakllanish va tashkil topish kabi uchta bosqichni bosib o'tdi va hozirda to'rtinchi rivojlanish bosqichida turibdi. Mazkur bosqichda maqsadli boshqaruv, qaror qabul qilishda teskari aloqa, infratuzilmaviy hamkorlikning soddalashtirilgan qoidalari joriy etilmoqda. Shuningdek,

<sup>18</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

rivojlangan axborot tizimlaridan foydalanish, ish jarayonlarini takomillashtirish va faoliyat samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ko'chmas mulk obyektlarini shakllantirish jarayonini tashkil etish bilan hozirda kadastr agentligi xizmati shug'ullanadi. Ko'chmas mulkni davlat kadastr baholash bo'yicha ishlar O'zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyati ijro etuvchi organlari tashabbusi bilan amalga oshiriladi. Kadastr baholash natijalarini tasdiqlash mexanizmini va kadastr qiymatini qo'llash mexanizmlarini shakllantirish bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo'mitasi shug'ullanadi (3-rasm).



**3-rasm. Ko'chmas mulk solig'i bazasini aniqlashda iqtisodiy faoliyat subjektlarining o'zaro hamkorligi<sup>19</sup>**

<sup>19</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

Baholash faoliyatining asosiy nazorati Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yuklatilishi shart. Kadastr qiymatini aniqlash bo'yicha ishlar natijalarini Kadastr agentligi ekspertizadan o'tkazadi. Milliy markaz bevosita baholash ishlarini amalga oshiruvchi, ma'lumotlarni boshqaruvchi va bozorni tahlil qiluvchi asosiy ijro etuvchi organ hisoblanadi. U Kadastr agentligi huzurida tashkil etilgan va uning nazorati ostida faoliyat yuritadi<sup>20</sup>.

Dissertatsiyaning **“Ko'chmas mulkni soliqqa tortishda turlash, tasniflash va hisobga olish mezonlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortish maqsadida turlash, ya'ni funksional-hududiy, huquqiy-tajriba va bozor qiymatiga asoslangan tasnifni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda ko'chmas mulk obyektlarini soliqqa tortishda hisobga olish xususiyatlari bayon etilgan holda ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Ko'chmas mulkni ommaviy baholash deganda o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan baholash obyektlarini guruhlashda qiymatni aniqlash jarayoni tushuniladi, uning doirasida baholash yondashuvlari asosida qiymatni modellashtirishning matematik va boshqa usullari qo'llaniladi. Turlash, guruhlash, tasniflash – bu tushunchalar-sinonimlar ko'pincha ko'chmas mulkni kadastr baholashda qo'llaniladi (4–jadval).

**4–jadval**

**Baholash obyektlarini turlarga ajratish bo'yicha terminologiyani umumlashtirish<sup>21</sup>**

<b>Jarayon</b>	<b>Tanlash qoidasi</b>	<b>Jarayonni qo'llash asosi</b>	<b>Jarayon natijasi</b>
Turlash	Baholash obyektlari bozorini tahlil qilish, kadastr qiymatini baholash modelini asoslash, narxni shakllantiruvchi omillar tarkibi va baholash obyektlarining qiymatini belgilash uchun zarur ma'lumotlar asosida guruhlash	Baholash obyektlari baholash yondashuvlari va metodologiyasi asosida guruhlarga ajratiladi	Turlar
Tasniflash	Umumiy xususiyatlar bo'yicha guruhlash (funksional, foydalanish, tuzilish xususiyatlari yoki bozor tasnifi)	Baholash obyektining standartlashtirilgan xususiyatlari asosida tasniflash	Sinflar
Guruhlash	Baholash obyektlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash va ularni tizimlashtirish	Baholash usullari va obyekt xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash	Guruhlar

Ko'chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholash jarayonlari bir tomondan mustaqil bo'lsa, ikkinchi tomondan o'zaro bog'liq. Bu o'zaro bog'liqlik ko'chmas mulk obyektlarini tasniflash orqali yaqqol namoyon bo'ladi.<sup>22</sup>


Tasnif soliq bazasini aniqlash usuli sifatida kadastr baholash va soliq stavkalarini belgilash bo'yicha soliqqa tortish o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Baholash obyektlarining kadastr qiymatini aniqlash uchun har bir

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi “Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-43-son Farmoni.

<sup>21</sup> Muallif tomonidan tuzilgan


<sup>22</sup> Массовая оценка для налогообложения имущества: междунар. рук. по оценке недвижимости (МСО 2005) MP13. International Valuation Standards Committee.

sinfga baholash usuli moslashtiriladi, soliqla tortishda har bir sinfga soliq stavkasi mos keladi (4–rasm).



**4–rasm. Ko‘chmas mulkni soliqqa tortish va baholash maqsadida hisobga olish tasnifi<sup>23</sup>**

Shunday qilib, tasniflash orqali soliqning ikki elementi – soliq bazasi va soliq stavkasini bog‘lash mumkin bo‘lib, bu soliqqa tortishning samaradorlik va adolat tamoyillarini amalga oshirish imkonini beradi: kadastr baholashda – iqtisodiy samaradorlik, differensiallashtirilgan soliq stavkalarida – ijtimoiy adolat ta’minlanadi.



**5–rasm. Ko‘chmas mulk obyektlari tasnifining iqtisodiy samaradorligini baholash metodikasi bosqichlar<sup>24</sup>.**


<sup>23</sup> Rasm muallif tomonidan tayyorlangan

<sup>24</sup> Rasm muallif tomonidan tayyorlangan

Metodikani sxematik tarzda ushbu ko‘rinishda taqdim etish mumkin (5–rasm).

Dissertatsiyaning “**Ko‘chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholash metodologiyasini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekistonda kadastr baholash xususiyatlari, uning davriy-tashkiliy va mantiqiy tuzilmasi hamda ko‘chmas mulkni soliqqa tortish modeli ilmiy-usulliy asosda ishlab chiqilib, ommaviy baholashni avtomatlashtirish, soliq bazasini aniq va adolatli hisoblash hamda institutlar o‘rtasida integratsiyalashgan axborot almashinuvini ta‘minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida ko‘chmas mulkni soliqqa tortish vazifasi, ko‘chmas mulkni soliqqa tortish uchun baholashning iqtisodiy nazariyalari, ko‘chmas mulkni kadastr qiymatini baholash metodikasi hamda ko‘chmas mulkni baholash standarti – metodologiyalarni qo‘llashni tartibga soluvchi bosqichlar, fazalar va etaplardan iborat bo‘lgan ko‘chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholash metodologiyasini aks ettiruvchi mualliflik ishlanmasi ishlab chiqilgan (6–rasm).



**6–rasm. Ko‘chmas mulkni soliqqa tortish va kadastr baholash metodologiyasi<sup>25</sup>**

<sup>25</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan


Ko‘chmas mulkning davriy (vaqtga bog‘liq) tuzilmasini aniqlash maqsadida kadastr baholash jarayonini tashkil etuvchi fazalar, bosqichlar va etaplar ajratiladi. Shu asosda faoliyatning tashkiliy, davriy va mantiqiy xususiyatlarini qamrab olgan kadastr baholash tuzilmasi tahlil qilinadi (5–jadval).

5–jadval

**Kadastr baholash davriy tuzilmasi<sup>26</sup>**

Ommaviy baholash (1 yil)	Ishlarni kuzatib borish (5-8 yil)
	Kadastr ma’lumotlarini kiritish (davomiy)
	Kadastr qiymati bo‘yicha nizolashish: sudgacha nizolashish (KAga ma’lumotlar kiritilgan kundan boshlab 5 yilgacha) sudda nizolashish (davomiy)
Kadastr ma’lumotlariga o‘zgartirish kiritish (muddatsiz va uzluksiz)	

“Ommaviy baholash” bosqichi hozirda “kadastr baholash”ning asosiy bosqichi hisoblanib u quyidagi tashkiliy tuzilmadan iborat (7–rasm):



**7–rasm. Ko‘chmas mulkni kadastr (ommaviy) baholashning tashkiliy tuzilmasi<sup>27</sup>**

<sup>26</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>27</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

Umuman olganda, ushbu sxema ko'chmas mulkni ommaviy baholash va kadastr qiymatini aniqlashning murakkab, ko'p bosqichli va turli davlat organlari hamda mutaxassislarni jalb qilgan tizimini aks ettiradi. Bu tizim shaffoflikni ta'minlash va baholash natijalari bo'yicha nizolarni hal qilish mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Faoliyatning mantiqiy tuzilishi faoliyat subyekti, obykti, predmeti uni tashkil etish shakllari, vositalari va usullarini o'z ichiga oladi (6–jadval). Kadastr baholash predmeti – ko'chmas mulk obyektlarining kadastr qiymatini aniqlash, faoliyat natijasi – ko'chmas mulk obyektlarining kadastr qiymati. Faoliyatning mantiqiy tuzilmasi ko'chmas mulkni kadastr baholashning fazalari, bosqichlari va etaplari tavsifida batafsil bayon etilgan. Uning umumlashmasini keltiramiz.

### 6–jadval

#### Ko'chmas mulkni kadastr (ommaviy) baholashning mantiqiy tuzilmasi<sup>28</sup>

Tarkibiy qismlar	Mavjud xususiyatlar	Mualliflik takliflari
Subyekt	Ko'chmas mulkni ommaviy baholash milliy markazi	Davlat yoki xususiy korxonalar
Obyekt	Kadastr agentligiga ro'yxatga olingan ko'chmas mulk obyektlari to'plami	Kadastr agentligi tasdiqlagan, ro'yxatga olingan obyektlar
Predmet	Ko'chmas mulk obyektlarining kadastr qiymatini aniqlash	Ko'chmas mulk obyektlarini bozor qiymati asosida baholash
Faoliyatni tashkil etish tartibi	1. Maxsus davlat organlari tomonidan markazlashgan tartibga solish va boshqaruv. 2. Yagona davlat uslubiyoti, axborot tizimlari va qonunchilik asosida faoliyat yuritish.	1. Jamoaviy – kadastr tizimida baholash jarayonini takomillashtirish. 2. Davlat kadastr organlari tomonidan monitoring o'tkazish. 3. Qonunchilik asosida baholash usullarini joriy etish. 4. Davlat ekspertizasi.
Integratsiyani ta'minlash (boshqaruv)	Kadastr agentligi bilan bog'liq tizimli ma'lumotlar to'plamini ta'minlash	Kadastr ro'yxatining raqamlashtirilgan (elektron) shaklini joriy etish
Faoliyat jarayonini tashkil etish	Kadastr agentligida ma'lumotlarni to'liq shaffofligini ta'minlash	Mustaqil institutlar tomonidan baholash ekspertizasini o'tkazish
Shakllar	Ko'chmas mulk obyektlari ma'lumotlari, hujjatlar, kadastr pasportlari	Kadastr agentligining yangi formatdagi kadastr hujjatlari
Vositalar	Kadastr agentligi, baholovchi markazlar, axborot tizimlari, monitoring va tadqiqotlar	Masofaviy dasturiy komplekslar
Usullar	Kadastr qiymatini hisoblash va turli baholash yondashuvlari	Ko'chmas mulk qiymatini ommaviy baholash usullari
Faoliyat natijasi	Kadastr agentligi tasdiqlagan baholash ma'lumotlari bo'yicha umumiy tarkibiy qismlarni aniqlash bo'yicha hisobot	Soliqqa tortish qiymati aniqlangan rasmiy kadastr hujjatlari

<sup>28</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Ko'chmas mulkni kadastr (ommaviy) baholashning davriy tuzilmasi 7-jadval keltirilgan.

7-jadval

**Ko'chmas mulkni kadastr (ommaviy) baholash bosqichining davriy tuzilmasi<sup>29</sup>**

Bosqich	Etap nomi	Etapning davomiyligi
1	Baholash ob'yektlari ro'yxatini tuzish	1-1,5 oy
2	Pudratchini tanlash	1-1,5 oy
3	Ishlarni bajarish uchun shartnoma tuzish	10 kun
4	Kadastr qiymatini aniqlash, shu jumladan:	7 oygacha
	Kadastr qiymatini belgilash loyihasini tayyorlash	2-3 oy
	Hisobot loyihasini KA ma'lumotlar fondiga joylashtirish	20 kun
	KA o'lchov ma'lumotlar fondining izohlarini inobatga olgan holda hisobot tayyorlash	1-1,5 oy
5	Hisobotni o'rganish	30 ish kuni
6	Natijalarni tasdiqlash	20 ish kuni
7	KA bazasiga natijalarni kiritish	10-15 ish kuni

“Ommaviy baholash” bosqichining davriy tuzilmasi tahlili uning bir yilgacha davom etishi mumkin degan xulosaga kelish imkonini beradi. Qator bosqichlar o'rtasidagi o'tishga ham vaqt sarflanishi aniq.

8-jadval

**Ko'chmas mulk bilan bog'liq soliqlarning rejalashtirilgan modeli<sup>30</sup>**

Soliq elementlari	Ko'chmas mulk bilan bog'liq soliqlar				Ko'chmas mulk solig'i
	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	
Joriy etilgan yili	1992 yil	1992 yil	1994 yil	1993 yil	2025 yildan rejalashtirilgan
Byudjet darajasi	Mahalliy	Mahalliy	Mahalliy	Mahalliy	Mahalliy
Soliq solish obyekti	Ko'chmas mulk	Ko'chmas mulk	Yer uchastkalari	Yer uchastkalari	Ko'chmas mulk
Soliq solish maqsadida obyektlarni hisobga olish	Kadastr agentligi	Soliq organlari. Soliq to'lovchilar.	Kadastr agentligi	Kadastr agentligi	Kadastr agentligi
Soliq solish bazasi	Inventarizatsiya qiymati. Kadastr qiymati.	O'rtaacha yillik (qoldiq) qiymati	Yer uchastkasining umumiy maydoni	Yer uchastkasining umumiy maydoni va normativ qiymati	Kadastr (bozor) qiymati
Soliq bazasini hisoblash	Kadastr agentligi	Soliq to'lovchilar	Kadastr agentligi	Kadastr agentligi	Milliy markaz va mustaqil baholovchilar
Soliq stavkasi	Vazirlar mahkamasi hamda Prezident qarorlari. Soliq kodeksi				Soliq kodeksi


<sup>29</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>30</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Ko'chmas mulk solig'ining asosiy elementlarini mumkin bo'lgan modifikatsiyasini ko'rib chiqamiz va ko'chmas mulk solig'ining mualliflik modelini taklif qilamiz. (8–jadval)

Har qanday soliq yoki yig'imdanda oldin uni soliq solish obyektiga bog'lab joriy etish maqsadi bo'lishi kerak. O'zbekistonda uzoq vaqtdan beri yagona ko'chmas mulk solig'ini joriy etish niyati mavjud bo'lib, ular xalqaro tajriba ta'sirida shakllangan, unga asoslanib Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanida, Navoiy viloyati Navoiy shahrida, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani va Buxoro viloyati Romitan tumanida ko'chmas mulk solig'ini joriy etish bo'yicha tajriba o'tkazilgan<sup>31</sup>. Tajribaning asosiy sharti huquq obyektini va soliq solish obyektini sifatida yagona soliq solish obyektini – yer va uning ustidagi yaxshilanishlarni birgalikda shakllantirish edi.

Ko'chmas mulk solig'iga o'tishning mualliflik modelini taklif qilamiz (8–rasm).



**8–rasm. Ko'chmas mulk solig'i bo'yicha taklif etilayotgan model<sup>32</sup>**

Amalga oshirilgan tadqiqotlarimiz va berilgan takliflarimiz natijasi o'laroq, O'zbekistonda yagona ko'chmas mulk solig'ini joriy etish ishlarining mantiqiy davomi sifatida 2025-yildan boshlab hududlarda bosqichma-bosqich barcha ko'chmas mulk obyektlarining bozor narxiga yaqin bo'lgan qiymatini aniqlash maqsadida davriy ravishda ommaviy baholashdan o'tkazilishi belgilandi. Ommaviy baholash ishlari 2025-2026-yillarda – eksperiment tariqasida Toshkent shahrida, 2026-2027-yillarda – Nukus shahri va viloyatlar markazlarida hamda 2027-yil va undan keyingi yillarda – qolgan hududlarda amalga oshiriladi<sup>33</sup>.

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3 dekbrdagi "Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6121 son Farmoni.

<sup>32</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>33</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-martdagi "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-43-son Farmoni.

Ko'chmas mulk solig'ini joriy etishga tayyorgarlik ko'rishning muhim bosqichi ko'chmas mulkni ommaviy baholash natijalari asosida ko'chmas mulk solig'ini joriy etish shartlari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida imtiyoz va chegirmalarning turli variantlari ko'rib chiqildi. Ko'chmas mulk solig'ini joriy etishda quyidagi umumlashgan iqtisodiy tahlil ssenariylari ishlab chiqildi va tadqiq qilindi (9–jadval).

9–jadval

**Ko'chmas mulk solig'i bo'yicha imtiyoz va chegirmalar ssenariylari parametrlari qisqacha tavsifi<sup>34</sup>**

Parametrlar	Qisqacha tavsif
Imtiyozsiz soliqqa tortish	Barcha soliq to'lovchilar uchun teng soliq yuki. Davlat byudjeti daromadlari ortib boradi.
Qiymatga asoslangan imtiyozlar	Ko'chmas mulkning kadastr (bozor) qiymatiga asoslangan, belgilangan limit doirasida soliqdan ozod qilish yoki chegirmalar berish (masalan, 42 mln. so'm).
Maydonga asoslangan imtiyozlar	Ko'chmas mulkning umumiy yoki turar joy maydoniga asoslangan, belgilangan limit (masalan, dastlabki 20 m <sup>2</sup> ) doirasida soliqdan ozod qilish yoki chegirmalar berish.
Ijtimoiy yo'naltirilgan imtiyozlar	Kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, nogironligi bo'lgan shaxslar kabi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlariga qaratilgan maxsus imtiyozlar va chegirmalar.
Soliq bazasidan chegirmalar	Soliq hisoblashda soliq bazasidan muayyan miqdorni (masalan, kadastr qiymati yoki maydonning bir qismini) chegirib tashlash.

Ko'chmas mulk solig'ini joriy etishning ijtimoiy–iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilish natijalari soliq to'lovchilar o'rtasida soliq yukini optimal taqsimlashga, shuningdek, soliq to'lovchilarga soliq tushumlarini taqsimlashga mos keladigan soliqqa tortishning zarur parametrlarini aniqlash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Ko'chmas mulkni soliqqa tortishni takomillashtirishda ommaviy baholash istiqbollari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida ommaviy baholash usulini joriy etish orqali ko'chmas mulk solig'ini isloh qilish imkoniyatlari, islohotlarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy yo'llari va ko'chmas mulkni soliqqa tortish hamda ommaviy baholashda qo'llaniladigan ekonometrik modellar ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab berilgan.

Ommaviy baholashning amaliyotda keng joriy etilishi va samarali foydalanilishi uchun tegishli qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur. Ommaviy baholashga quyidagicha mualliflik ta'rifi berildi: Ommaviy baholash – bu ko'p sonli ko'chmas mulk obyektlarining qiymatini standartlashtirilgan usullar va modellar asosida aniqlash jarayonidir. Ommaviy baholash jarayonida umumiy axborot bazalari, matematik–statistik modellar va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalaniladi. Ushbu yondashuv ko'p obyektlarni qisqa vaqtda va samarali

<sup>34</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

baholash imkonini beradi.

XBSda ko‘chmas mulk obyektlari sinflarini baholashga yondashuvlarni qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rsatilgan (10–jadval).

**10–jadval**


**Ommaviy baholashni o‘tkazishda qiymatni aniqlashga uchta yondashuvni qo‘llashning ustuvorliklari<sup>35</sup>**

Sinf / Yondashuv	Xarajat yondashuvi	Qiyosiy yondashuv	Daromad yondashuvi
Yakka tartibdagi turar joy	2	1	3
Ko‘p qavatli binolar	3	1, 2	1, 2
Tijorat ko‘chmas mulki	3	2	1
Sanoat ko‘chmas mulki	1,2	3	1,2
Qishloq xo‘jalik ko‘chmas mulki	–	2	1
Maxsus maqsadli ko‘chmas mulk	1	2, 3	2, 3

Izoh: har bir yondashuvning afzallik darajasini bildiruvchi reyting (1 yuqori, 2 o‘rta, 3 quyi).

O‘zbekistonda ko‘chmas mulkni kadastr baholash maqsadlari uchun baholash obyektlari sinflari va baholash usullarining bir qiymatli nisbati ishlarning uslubiy ta‘minoti doirasida mustahkamlandi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, baholashning har uchala yondashuvi amaliyotda qo‘llaniladi (9–rasm).



**9–rasm. Ko‘chmas mulkni soliqqa tortishda kadastr baholash yondashuvlari va usullari<sup>36</sup>.**

<sup>35</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>36</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

Shunday qilib, ko'chmas mulk solig'i bo'yicha soliq bazasi sifatida ko'chmas mulkning bozor qiymatini belgilash va keyinchalik uning bir qismini jamiyat foydasiga olib qo'yish adolatli bo'ladi.

Quyida O'zbekistonda kadastr qiymatini indeksatsiyalashning taklif etilayotgan metodologiyasi (11-jadval).

11-jadval

**O'zbekistonda kadastr qiymatini indeksatsiyalashning taklif etilayotgan metodologiyasi**

Komponent	Taklif
Ko'chmas mulk narxlari indeksi	Milliy yoki mahalliy uy-joy narxlari indeksi (agar mavjud bo'lsa). Muqobil sifatida - O'zbekiston Markaziy banki tomonidan e'lon qilinadigan inflyatsiya indeksi.
Indeksatsiya formulasi	Indeksatsiyalangan qiymat = Joriy kadastr qiymati x (Joriy indeks qiymati / Bazaviy indeks qiymati)
Indeksatsiyani yangilash chastotasi	Har yili, bozorning sezilarli tebranishlarida tez-tez yangilanish imkoniyati bilan.
Mavjud tizimlar bilan integratsiyalash	Indekslarni avtomatik ravishda qo'llash va yozuvlarni yangilash uchun "Ko'chmas mulk bozori monitoringi" va "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash" avtomatlashtirilgan axborot tizimlari bilan integratsiyalash.

Taklif etilgan metodologiyadagi bazaviy indeks qiymati joriy kadastr qiymati belgilangan paytdagi indeks qiymatiga mos keladi.

Ko'chmas mulk qiymatini soliqqa tortish maqsadida ommaviy baholashning bozor usullarini turar joy ko'chmas mulkini ANOVA regression modeli yordamida baholashni ko'rib chiqamiz.

12-jadval

**Kvartira narxi shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash natijalari<sup>37</sup>**

Narxy	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
hududx1	-316.083	16.251	-19.45	0	-348.216	-283.951	***
hududx2	-388.833	16.251	-23.93	0	-420.966	-356.701	***
hududx3	-277.417	16.251	-17.07	0	-309.549	-245.284	***
hududx4	-675.75	16.251	-41.58	0	-707.883	-643.617	***
hududx5	-406.083	16.251	-24.99	0	-438.216	-373.951	***
hududx6	-420.333	16.251	-25.87	0	-452.466	-388.201	***
hududx7	-356.5	16.251	-21.94	0	-388.633	-324.367	***
hududx8	-347.75	16.251	-21.40	0	-379.883	-315.617	***
hududx9	-392.75	16.251	-24.17	0	-424.883	-360.617	***
hududx10	-542.75	16.251	-33.40	0	-574.883	-510.617	***
hududx11	-655.417	16.251	-40.33	0	-687.549	-623.284	***
hududx12	-619.417	16.251	-38.12	0	-651.549	-587.284	***
Bloxx13	-40.769	7.807	-5.22	0	-56.205	-25.333	***
Yogochx14	-87.5	7.807	-11.21	0	-102.936	-72.064	***
xonalix15	20.769	9.014	2.30	.023	2.945	38.593	**
xonalix16	44.359	9.014	4.92	0	26.535	62.183	***
xonalix17	70.256	9.014	7.79	0	52.432	88.08	***
Constant	1011.66	13.521	74.82	0	984.924	1038.396	***
Mean dependent var		587.436	SD dependent var			184.114	
R-squared		0.958	Number of obs			156	
F-test		186.940	Prob > F			0.000	
Akaike crit. (AIC)		1608.995	Bayesian crit. (BIC)			1663.893	

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$


<sup>37</sup> Tadqiqot ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

Regressiya natijalariga ko'ra, soliqa tortishda asosiy tarkibiy omillar – joylashuv, devor material va xonalar soni – narxni aniqlashda statistik jihatdan muhim va amaliyotga yaqin. 2-xonali kvartira uchun  $\approx 2\%$ , 3-xonali uchun  $\approx 4\%$ , 4-xonali uchun esa  $\approx 7\%$  qo'shimcha stavkalar qo'llash mumkin (12–jadval).

ANOVA model natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi ko'rsatkichlar alohida e'tiborga ega. 13 ta hududdan 11 tasida ko'rsatkichlar  $p$  ning 1% ligida statistik ahamiyatga ega, faqatgina Sirdaryo viloyatida  $p$  ning 5% ligida statistik ahamiyatga ega ya'ni narxni belgilashda omil qiymatning mavjudligi tasodif.

Bu yerda ikkita gipoteza tahlil qilinadi, birinchisi,  $H_0$  – narxning shakllanishida omil belgining mavjudligi tasodif, ikkinchisida esa  $H_a$  (alternativ gipoteza) – narxning shakllanishida omil belgining mavjudligi tasodif emas. Determinatsiya koeffitsiyenti – tahlilda ko'rilayotgan natijaviy belgining ma'lum qiymati o'zgarishi ta'sir etuvchi omil belgilar bilan izohlanadi. Jizzax viloyati hududi, devor materiali yog'och hamda kvartira 4 xonali bo'lganda narxning shakllanishida omilning mavjudligi yoki mavjud emaslik haqidagi gipotezalarni ilgari surishda muammolar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Chunki, model natijalarida yuqorida aytib o'tilgan omillar statistik ahamiyatga ega emasligini ko'rsatyapti.

$R^2=0,958$ , ya'ni bu modeldagi natijaviy belgining 95,8% o'zgarishi omil belgilar ta'siri bilan izohlanadi.  $F\text{-test}=186,94$  va  $\text{Prob}(F\text{-statistik})>F$ , bu model umumiy holda muhim ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, const (o'zgarmas qiymat): 375 – bazaviy narx  $p$  ( $p<0,01$ ,  $p<0,05$ ,  $p<0,1$ ), 1% likda statistik ahamiyatga ega). Grafikdan ko'rishimiz mumkinki, narx to'g'ri chiziq bo'ylab bir tekis joylashmagan demak, bu yerda multikollinearlik mavjud (10–rasm).




**10–rasm. Ko'chmas mulk qiymatini baholashda omillar o'rtasida multikollinearlik holati tahlili<sup>38</sup>**

<sup>38</sup> Tadqiqot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Tahlil natijalarining ishonchligini bevosita tadqiqotimizda olingan o'zgaruvchilarning normal taqsimotiga bog'liq. Biz tahlilimiz davomida aynan ko'chmas mulk qiymatini baholashda omillar o'rtasida normal taqsimotga ega yoki ega emasligini tekshirishimiz lozim.

Yuqoridagi grafik bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, narx 500 dan 700 oralig'igacha ko'p uchraydi (1-grafik). 2-grafikda aynan narx shakllanishi bo'yicha ko'rsatkichlar normal taqsimotga ega yoki ega emasligini ko'rish mumkin. Normal taqsimotga to'liq ega yoki ega emas deb aytoilmaymiz, chunki grafikda omillar sababli tafovutlar mavjud bo'lishi mumkin (11-rasm).



**11-rasm. Ko'chmas mulk qiymatini baholashda omillar o'rtasida normal taqsimotga ega yoki ega emaslik tahlili<sup>39</sup>**

Bunday holatda biz Shapiro-Wilk<sup>40</sup> testi orqali tekshirishimiz maqsadga muvofiqdir (13-jadval).

**13-jadval**

**Shapiro-Wilk testi natijalari<sup>41</sup>**

Shapiro-Wilk test for normal data

Variable	Obs	W	V	z	Prob>z
Narx	156	0.919	9.745	5.172	0.000

Shapiro-Wilk testida ikkita gipoteza ilgari suriladi: ya'ni  $H_0$  – normal taqsimotga ega,  $H_a$  – normal taqsimotga ega emas. Test natijalari shuni ko'rsatadiki, p-qiymati 0.000 bo'lganligi uchun  $H_0$  gipotezani 1% likda qabul qilamiz, ya'ni kvartira narxi 1% likda normal taqsimotga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

<sup>39</sup> Tadqiqot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

<sup>40</sup> Shapiro S. S., Wilk M. B. An analysis of variance test for normality (complete samples). Biometrika. – 1965. – T. 52. – №. 3/4. – S. 591-611.

<sup>41</sup> Muallif tomonidan stata dasturi asosida olingan natijasi

## XULOSA

Dissertatsiyada ko'chmas mulkni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Ko'chmas mulkni soliqqa tortish tizimi – fiskal va ijtimoiy siyosat birligida. Mazkur tadqiqotda soliqqa tortishning nafaqat fiskal, balki ijtimoiy vazifasi ham nazarda tutilib, ko'chmas mulk soliqlari boshqaruv vositasi sifatida o'rganildi. Shu asosda, adolat tamoyili soliqqa tortish tizimining markaziy konsepsiyasi sifatida ilgari surildi va uni ijtimoiy davlat qurish jarayonida asosiy hal qiluvchi mezon sifatida tatbiq etish taklif etildi.

2. Xorijiy davlatlar amaliyotida ommaviy baholashning markaziy o'rni. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda ko'chmas mulkni soliqqa tortish tizimi tarixiy va institutsional rivojlanish davomida ommaviy baholash tamoyiliga tayanib shakllangan. Bu yondashuv orqali mulk obyektlarining haqiqiy qiymatini aniqlash va soliq yukining adolatli taqsimotiga erishilgan. Bundan tashqari, ommaviy baholash fiskal barqarorlik va boshqaruv samaradorligini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'lgan.

3. Institutsional va tarixiy yondashuv asosida model ishlab chiqildi. Ko'chmas mulkni soliqqa tortish va baholash institutining shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari hamda funksional bog'liqligi ilmiy asosda tahlil qilindi. Mulkchilik shakllari va bozor mexanizmlari bilan tizimli aloqalar o'rnatilib, O'zbekiston tajribasida ushbu institutning institutsional yetuklik darajasi baholandi va takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqildi.

4. Davlat darajasida baholash jarayonlarini markazlashtirish zarurati asoslandi. Baholashning samarali boshqaruvi uchun yagona yondashuv zarurligi aniqlanib, Ko'chmas mulkni kadastr baholash bo'yicha Milliy markaz tashkil etish, oliy ta'lim tizimida esa yangi – “Soliq bahosi” yo'nalishini joriy etish tashabbuslari ilgari surildi.

5. Ko'chmas mulk obyektlarining tizimli tasnifi ishlab chiqildi. Tadqiqot doirasida mulk obyektlarini soliqqa tortish, baholash va kadastr hisobi ehtiyojlari uchun ilmiy asoslangan tasnif ishlab chiqildi. Bu tasnif soliq stavkalarini belgilashda, baholash usullarini tanlashda hamda foydalanish turini aniqlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tiplashtirish yondashuvlari ishlab chiqilib, yer uchastkalari va kapital obyektlarni uzluksiz tasniflash tamoyili asoslandi.

6. Tasniflash tizimining iqtisodiy samaradorligi baholandi. Kadastr baholash xarajatlari va soliqlardan olinadigan daromadlar nisbati asosida tahliliy model ishlab chiqildi. Xarajatlar daromaddan oshgan holatlarda tasnif tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

7. Kadastr baholash metodologiyasi yangilandi. Baholash jarayonining tashkiliy, mantiqiy va davriy strukturalari tizimlashtirildi. Uning sifati, uslubiy asoslari va ekspertlarga qo'yiladigan talablar aniqlanib, baholashning ijtimoiy-

iqtisodiy ahamiyati yoritildi. Jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish, xususiy baholash tashkilotlarini shakllantirish taklif qilindi.

8. Ommaviy baholash tizimining samaradorligi asoslandi. Ommaviy baholash tizimi orqali keng ko‘lamli ma’lumotlar tahlil qilinib, qaror qabul qilish jarayoni avtomatlashtiriladi. Bu tizim kadastr qiymatini adolatli aniqlash, shaffoflik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga xizmat qilishi isbotlandi.

9. Model asosida metodologik uyg‘unlikka erishildi. Soliq ulushi, statistik modellashtirish va obyektlarni tiplash yondashuvlarining o‘zaro ta’siri o‘rganilib, ularning birgalikdagi qo‘llanilishi orqali umumlashtiruvchi konseptual model ishlab chiqildi.

10. Indeksatsiya mexanizmi taklif qilindi. Kadastr qiymatining doimiy yangilanib borishini ta’minlash maqsadida indeksatsiyalash tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim narx indekslarini hisoblashda xalqaro standartlarga asoslanadi va soliqqa tortishdagi aniqlik tamoyilini ta’minlaydi.

11. Jismoniy shaxslar uchun yangi soliq yondashuvi taklif etildi. Tadqiqot natijalari asosida jismoniy shaxslar uchun kadastr yoki bozor qiymatiga asoslangan soliq bazasiga o‘tish ssenariylari ishlab chiqildi. Ularning ijtimoiy adolat va fiskal samaradorlikka muvofiqligi baholandi hamda optimal model tanlab olindi.

12. Mualliflik soliq modeli ishlab chiqildi. Soliq tizimining parametrlarini – obyektlar, stavkalar, imtiyozlar va chegirmalarni adolatli belgilash orqali hududlar barqaror rivojiga xizmat qiluvchi yangi model taklif etildi. Bu modelning qisqa, o‘rta va uzoq muddatli istiqbollari belgilandi.

13. Ekonometrik modellar samaradorligi asoslandi. Tadqiqot davomida ko‘chmas mulk qiymatini aniqlashda ekonometrik modellashtirish eng samarali usul ekanligi isbotlandi. Xususan, hudud, devor materiali va xona soni asosiy omillar sifatida identifikatsiya qilindi. Baholash va soliqqa tortish amaliyotida ushbu usullarni joriy etish tavsiya etildi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot ko‘chmas mulkni bozor qiymati asosida soliqqa tortish tizimining ilmiy asoslarini ishlab chiqib, mavjud baholash metodologiyasini yangilash va takomillashtirishga qaratilgan. Natijalar yuqori ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, nafaqat amaldagi soliq siyosatini modernizatsiya qilish, balki mutaxassislar tayyorlash tizimiga chuqur integratsiya qilish zaruratini ham asoslab beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/10.2019.I.16.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ТУЛАКОВ УЛУГБЕК ТАШМАМАТОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ  
НЕДВИЖИМОСТИ**

**08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора экономических наук (Doctor of Science)**

**Ташкент – 2025 год**

Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2024.1.DSc/Iqt646.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и на информационно-образовательном портале "Ziyonet" ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный консультант:**

**Худойкулов Садирдин Каримович**  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Кузиева Наргиза Рамазановна**  
доктор экономических наук, профессор

**Ахроров Зариф Орипович**  
доктор экономических наук, доцент

**Бозоров Акмал Амонович**  
доктор экономических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Ташкентский международный университет Кимё**

Защита диссертации состоится в 14<sup>00</sup> часов "2" "10" 2025 года на заседании Научного совета DSc.03/10.12.2019.1.16.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под № 1763 Адрес: 100066, город Ташкент, улица Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

Автореферат диссертации распространён "10" "09" 2025 года.

(Протокол реестра № 79 от "10" "09" 2025 года)



**С.У.Мехмонов**

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

**У.В.Гафуров**

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

**Н.Б.Абдусаломова**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (DSc) диссертации)**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мировой экономике совершенствование методологии налогообложения недвижимости имеет важное значение для эффективного распределения экономических ресурсов, устойчивого обеспечения бюджетных поступлений и формирования равной конкурентной среды. Точность и справедливость механизмов налогообложения стимулируют достоверное отражение рыночной стоимости имущества, а также своевременное и полное исполнение налогоплательщиками своих обязательств. В настоящее время налог на недвижимость составляет в среднем 5–6% от общего объема налоговых поступлений по всему миру. В США и Великобритании данный показатель достигает 10–12%, охватывая 2–3% валового внутреннего продукта. В Канаде доля налога на недвижимость выше и составляет 15–20%. Во Франции данный налог составляет 8–10%, в Швейцарии – 7–8%. В некоторых странах налог на недвижимость может составлять в среднем 20–40% местных бюджетов. Например, во Франции этот показатель достигает 40–50%, в Канаде – 70–80%, а в Швейцарии – 10–20%<sup>1</sup>. Кроме того, современные методологии служат важным фактором повышения прозрачности на рынке недвижимости, сокращения налоговых потерь и достижения государством макроэкономической стабильности. В связи с этим развитие данных методологий на основе международных стандартов и цифровых технологий оказывает положительное влияние на глобальную экономическую устойчивость.

В мировых странах совершенствование методологии налогообложения недвижимости и упрощение налогового администрирования в условиях стремительного развития глобализации и цифровой экономики рассматриваются в качестве приоритетной задачи. В развитых странах актуальным является совершенствование методологии налогообложения недвижимости, при этом особое внимание уделяется внедрению оценки, основанной на рыночной стоимости, использованию цифровых технологий и упрощению налогового администрирования. Эти подходы имеют важное значение для повышения финансовой самостоятельности местных бюджетов, обеспечения прозрачности и справедливости налоговой системы, а также стимулирования экономического роста.

Социальные изменения в Узбекистане – формирование института собственности и становление рынка недвижимости – создали условия и сформировали необходимость для реформирования системы налогообложения недвижимости. Реформирование системы налогообложения Республики Узбекистан, в частности, изменение подходов к налогу на имущество и земельному налогу, предусматривает переход от инвентаризационной стоимости имущества и нормативной стоимости земли к индикатору “рыночной стоимости”, который изменяется в зависимости от

---

<sup>1</sup> OECD Revenue Statistics 2024: Health Taxes in OECD Countries (1965–2023). данные сайта – oecd.org.

ситуации на рынке недвижимости<sup>2</sup>. В Узбекистане методом определения такого показателя является кадастровая оценка недвижимости. Внедрение оценки, основанной на рыночной стоимости, автоматизация процессов с использованием цифровых технологий, применение искусственного интеллекта и технологии блокчейн обеспечивают прозрачность и эффективность налоговой системы. Наряду с оптимизацией налоговой нагрузки и стимулированием экономического роста за счёт инновационных подходов, проведение научных исследований с целью решения проблем, связанных с налогом на недвижимость, имеет важное значение и способствует повышению эффективности бюджетно-налоговой политики. В условиях перехода к налогообложению на основе кадастровой стоимости недвижимости, совершенствование методологии налогообложения недвижимости приобретает особую актуальность для повышения налогового потенциала регионов и установления социальной справедливости в налогообложении, что играет важную роль в определении темы и направления диссертационного исследования.

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению задач, установленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 5 марта 2025 года № УП-43 “О внедрении системы массовой оценки недвижимого имущества”, от 28 января 2022 года № УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы”, от 7 сентября 2020 года № УП-6061 “О мерах по коренному совершенствованию системы ведения учёта земель и государственных кадастров”, от 3 декабря 2020 года № УП-6121 “О дальнейшем совершенствовании ресурсных налогов и налога на имущество”, от 29 июня 2018 года № УП-5468 “О концепции совершенствования налоговой политики Республики Узбекистан”, постановлениях Президента Республики Узбекистан от 7 сентября 2020 года № ПП-4819 “О мерах по организации деятельности Кадастрового агентства при Государственном налоговом комитете Республики Узбекистан”, от 10 июля 2019 года № ПП-4389 “О дополнительных мерах по совершенствованию налогового администрирования”, постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 июля 2021 года № КМ-389 “Об утверждении отдельных нормативно-правовых актов, регулирующих сферу ведения государственных кадастров”, а также других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики, в частности, по направлению I: “Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики”.

---

<sup>2</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 29 июня 2018 года № ПФ-5468 «О концепции совершенствования налоговой политики Республики Узбекистан».

### **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>3</sup>.**

Научно-методические исследования по совершенствованию налога на недвижимость последовательно продолжаются международными научными центрами, финансовыми институтами и высшими учебными заведениями. В частности, в данном направлении проводятся масштабные исследования Международным валютным фондом (МВФ, США), Организацией экономического сотрудничества и развития (ОЭСР, Франция), Всемирным банком (World Bank, США), Европейской комиссией (ЕК, Бельгия), Международной ассоциацией оценщиков (IAAO, США), а также такими авторитетными университетами, как Оксфордский университет (Великобритания), Сорбоннский университет (Франция), Колумбийский университет (США), Боннский университет (Германия), Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации (Россия), Ташкентский государственный экономический университет и Термезский государственный университет (Узбекистан).

На основе научных исследований, проведённых в мире по налогу на недвижимость, выдвинут ряд важных выводов и рекомендаций, в том числе: согласно руководству МВФ 2024 года “How to Design and Implement Property Tax Reforms”, обосновано, что за счёт расширения налоговой базы и приближения кадастровой стоимости к рыночной в развивающихся странах возможно как минимум двукратное увеличение поступлений от данного налога по сравнению с текущим уровнем. Вместе с тем рекомендовано сохранить умеренную налоговую ставку (0,3–1,0%)<sup>4</sup>; согласно отчету ОЭСР “Tax Policy Reforms” за 2024 год, в 2021 году доля налогов на недвижимость в общем объёме налоговых поступлений составляла в странах с высоким уровнем дохода в среднем 5,9%, а в странах с низким уровнем дохода – 1,2%. В 2023 году ставка налога на недвижимость в Чехии была увеличена вдвое, а на Сейшельских островах ставка была повышена с 0,25% до 0,5%<sup>5</sup>; в “Economic Brief” ЕЕК за март 2024 года подчёркивается необходимость частого обновления кадастровой стоимости в условиях высокой инфляции и внедрения механизмов отсроченного платежа или налогового кредита для владельцев жилья категории “активно-богатые, но с низкой ликвидностью”<sup>6</sup>; анализ Всемирного банка за апрель 2025 года показал, что цифровизация кадастра в Колумбии в 2021–2023 годах увеличила поступления от местного налога на имущество в среднем на 35%, а в отдельных городах – до 150%, и снизила зависимость от центрального бюджета на 24%<sup>7</sup>; на семинаре World Bank Tokyo Development Learning Center “Technical Deep Dive: Property Tax and Land-Based Financing” в сентябре 2023 года было рассчитано, что

---

<sup>3</sup> IMF. How to Design and Implement Property Tax Reforms. 2024.; OECD. Tax Policy Reforms 2024: OECD and Selected Partner Economies; European Commission. Economic Brief 079 – Growth-Friendly Taxation in a High-Inflation Environment. 2024.; World Bank Blog. How Stronger Land Systems Can Spur Economic Growth and Jobs. 2025.; World Bank TDLC. Technical Deep Dive: Property Tax and Land-Based Financing. 2023.; IAAO. Guidance on Developing Mass Appraisal and Related Tax Policy. 2023.

<sup>4</sup> IMF. How to Design and Implement Property Tax Reforms. 2024.

<sup>5</sup> OECD. Tax Policy Reforms 2024: OECD and Selected Partner Economies

<sup>6</sup> European Commission. Economic Brief 079 – Growth-Friendly Taxation in a High-Inflation Environment. 2024.

<sup>7</sup> World Bank Blog. How Stronger Land Systems Can Spur Economic Growth and Jobs. 2025.

